

BUXORO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

2024- YIL YANVAR-SENTABR



Buxoro viloyatida 2024- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Raqamlar:



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar -

35 342,9 mlrd. so‘m


O‘sish sur’ati -

144,5 %

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **35 342,9** mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilga nisbatan **144,5 %** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo‘yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **29 627,2** mlrd. so‘m yoki **83,8 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **4 823,2** mlrd. so‘m, yoki **13,7 %** i korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri keladi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2024- yil yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan – **1 888,2** mlrd. so‘m, jami investitsiyalardagi ulushi **5,4 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **33 454,7** mlrd. so‘m, jami investitsiyalardagi ulushi **94,6 %** ni tashkil qildi.



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'mi-noti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Jami viloyat	35 342,9	1,4	7,2	6,5	1,0	83,8	0,1	-
Buxoro sh.	3 549,2	4,4	28,2	7,7	2,0	57,3	0,4	-
Kogon sh.	147,5	3,9	25,2	27,7	0,3	41,9	1,0	-
Olot	1 269,3	3,3	2,7	16,8	-	77,2	-	-
Buxoro	2 512,1	1,6	4,5	8,0	3,4	82,5	-	-
Vobkent	591,7	1,1	15,0	20,8	1,1	61,9	0,1	-
G'ijduvon	5 590,4	0,4	2,4	5,7	0,7	90,8	-	-
Kogon	902,2	5,4	17,1	19,0	3,6	54,9	-	-
Qorako'l	13 899,8	0,3	1,9	1,3	0,1	96,4	-	-
Qorovulbozor	3 292,9	0,2	9,6	0,8	0,1	89,3	-	-
Peshko'	618,2	0,4	5,5	30,5	-	63,5	0,1	-
Romitan	2 050,1	4,9	12,1	10,8	2,8	69,4	-	-
Jondor	463,4	1,1	17,2	42,7	5,7	33,1	0,2	-
Shofirkon	456,1	2,5	10,2	26,9	8,8	51,4	0,2	-

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish
manbalari bo'yicha tarkibi**

	Mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Jami	35 342,9	144,5	100
Markazlashgan:	1 888,2	72,8	5,4
Respublika byudjeti	491,1	42,4	1,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	25,3	35,0	0,1
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan xorijiy kreditlari	1 371,8	100,7	3,9
Markazlashmagan:	33 454,7	152,9	94,6
Korxona mablag'i	2 542,6	74,8	7,2
Aholi mablag'i	2 280,6	106,3	6,5
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	28 255,4	177,3	79,9
Tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	376,1	100,7	1,0


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumi hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da

Markazlashgan




Markazlashmagan

- To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Korxonalarining o'z mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **11 987,7** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **34,0** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **20 620,2** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **58,3** % i) va boshqa xarajatlarga **2 735,0** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **7,3** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning jamiga nisbatan ulushi, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridaqdi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **13 338,6** mlrd. so'm o'zlashtirilgan, yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **37,7** % ni tashkil etmoqda.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari ishlab chiqarish sanoati **30,5** % (yoki **10 749,7** mlrd. so'm), tog'-kon sanoatiga **9,6** % (yoki **3 406,4** mlrd. so'm), tashish va saqlash faoliyati **6,7** (yoki **2 321,3** mlrd. so'm), uy-joy qurilishiga **5,0** % (yoki **1 767,6** mlrd. so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **2,7** % (yoki **937,9** mlrd. so'm), qurilishga **2,6** % (yoki **928,6** mlrd. so'm), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlashga **1,2** % (yoki **396,6** mlrd. so'm), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga **1,0** % (yoki **367,1**

mlrd. so‘m), ta’limga **0,7** % (yoki **247,2** mlrd. so‘m), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar **0,4** % (yoki **156,3** mlrd. so‘m), boshqa faoliyat turlariga **1,9** % (yoki **725,6** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keladi.


Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo‘yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog‘liq.

Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2024- yil yanvar-sentabr oylarida **29 627,2** mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **83,8** % i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati **171,2** foizni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **18 162,8** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **61,3** % ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **11 464,4** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **38,7** % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi, gaz, bug' va kondisiyalangan havo
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Boshqa faoliyat turlari

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi elektr energiyasi, gaz, bug' va havoni kondisiyalash ishlab chiqarish sanoatiga **13 115,4** mlrd. so'm (yoki **44,3** %), ishlab chiqarish sanoatiga **10 523,0** (yoki **35,5** %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'iga **3 117,0** mlrd. so'm (yoki **10,5** %), tashish va saqlashga **1 559,8** mlrd. so'm (yoki **5,3** %), qurilishga **520,4** mlrd. so'm (yoki **1,8** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **262,2** mlrd. so'm (yoki **0,9** %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilishga **62,0** mlrd. so'm (yoki **0,2** %) va boshqa faoliyat turlariga **467,4** mlrd. so'm (yoki **1,5** %) to'g'ri keladi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. soʻmda)

Shu jumladan:				
Jami investitsiya va kreditlar	Toʻgʻridan- toʻgʻri investitsi- yalar	Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostida boʻlgan xorijiy kreditlar	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	
Jami	29 627,2	16 581,6	1 093,0	11 952,5
Buxoro sh	2 032,1	571,6	17,5	1 443,0
Kogon sh	61,8	7,1	-	54,7
Olot	979,3	858,1	76,3	44,9
Buxoro	2 073,4	630,9	-	1 442,5
Vobkent	366,2	97,8	10,2	258,2
Gʻijduvon	5 073,4	4 883,5	4,8	185,1
Kogon	495,0	146,3	26,1	322,6
Qorakoʻl	13 400,7	6 287,0	-	7 113,7
Qorovulbozor	2 941,3	2 367,8	-	573,5
Peshkoʻ	392,6	251,5	139,2	1,9
Romitan	1 422,9	217,3	-	1 205,6
Jondor	153,9	32,7	-	121,2
Shofirkon	234,6	230,0	4,6	-

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Qorako'l tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **13 899,8** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **6,4 m.** ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni G'ijduvon tumani egalladi. O'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **5 590,4** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **145,8** foizni tashkil qildi. Buxoro shahri **3 549,2** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan **91,4** foizni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Jami	17 188,5	142,1
Buxoro sh	11 958,0	89,6
Kogon sh	2 269,0	63,9
Olot	12 100,0	181,8
Buxoro	13 987,4	171,4
Vobkent	3 955,0	95,4
G'ijduvon	17 227,7	143,4
Kogon	10 589,0	67,9
Qorako'l	80 485,4	6,4 m.
Qorovulbozor	163 827,3	113,9
Peshko'	4 683,6	18,1
Romitan	13 478,7	60,2
Jondor	2 483,3	101,1
Shofirkon	2 437,8	155,7

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori ko'rsatkichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **163 827,3** ming so'mni, o'sish sur'ati **113,9** foizni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Qorako'l tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **80 485,4** ming so'mni, o'sish sur'ati **6,4 m.** ni tashkil qildi. G'ijduvon tumani uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **17 312,3** ming so'mni, o'sish sur'ati **143,4** foizni tashkil qildi.

Obyektlarni ishga tushirish

2024- yilning yanvar –sentabr oylarida umumiy maydoni **1 191,6** ming kv.m. bo‘lgan **4 237** xonadonli **4 014** ta turar-joy ishga tushirildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **98,0** foizni tashkil etdi. Shundan umumiy maydoni **909,1** ming kv.m bo‘lgan **4 007** ta xonadonli **4 007** ta turar joylar qishloq joylariga to‘g’ri keladi. (O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati **103,1 %**) Turar-joylarni qurilishiga **1 637,6** mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi
Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**